

O'ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISH:

AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA ERISHILGAN NATIJALAR



1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-436-son qarori ishlab chiqildi va qabul qilindi. Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash **dasturi**;
- sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha **konsepsiya**;
- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sishni ta'minlash bo'yicha **Harakatlar rejas**i;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning **maqsadli parametrlari**;
- O'zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha **Idoralararo kengash** tarkibi yangilandi;
- “Yashil” iqtisodiyotga o'tish va “yashil” o'sish bo'yicha **Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi** tasdiqlandi.



**TCAF — Jahon bankining
trast fondi bo'lib,
mamlakatlarning uglerod
narxini shakllantirish va
xususiy sektorni past uglerodli
texnologiyalarga investitsiya
kiritishga yo'naltirilgan
sa'y-harakatlarini
qo'llab-quvvatlaydi.**

**Bugungi kunga qadar mazkur
dastur doirasida jami 10 mln
tonna CO₂ ekvivalentidagi
issiqxona gazlari emissiyasi
qisqartirilib, 15,0 mln AQSh
dollari miqdoridagi mablag'lar
(2024-yilda — 7,5 mln dollar,
2025-yilda — 7,5 mln dollar)
jalb qilindi.**

2. Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi **“yashil energiya sertifikatlari” tizimi** ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi **PQ-156-son qarori** bilan joriy etildi.

Mazkur tizimga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilari **“yashil sertifikat”larni** yakuniy foydalanuvchilarga (tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga) sotadi va shu orqali energiyaning “tozaligi”ni kafolatlaydi.

Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o'z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish (Yevropa Ittifoqida bunday sertifikatlar majburiy hisoblanadi), shuningdek, xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan **“yashil” investitsiyalar va “yashil” kreditlarni** jalb qilish imkonini beradi.

Bugungi kunga qadar mazkur tizim doirasida **446 mingdan** ziyod **“yashil energiya sertifikati”** chiqarilib, savdoga yo'naltirildi.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan O'zbekiston 2022-yil may oyida Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha global majburiyat (**The Global Methane Pledge**) tashabbusiga qo'shildi.

Mazkur tashabbus unga qo'shilgan a'zolarning 2030-yilgacha global metan emissiyasini 2020-yil darajasiga nisbatan kamida **30 foizga** kamaytirish bo'yicha jamoaviy sa'y-harakatlarga hissa qo'shish uchun ixtiyoriy choralarni amalga oshirishga roziligini bildiradi.

Tashabbus doirasida mamlakatda amaliy harakatlarni boshlash maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (ETTb) **“Metan emissiyasini kamaytirish milliy dasturini ishlab chiqish”**ga qaratilgan **1 mln AQSh dollari** miqdoridagi texnik ko'magi jalb qilindi.

4. Jahon banki bilan birgalikda Parij bitimining 6-moddasiga muvofiq issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish birliklarining xalqaro savdosini yo'lga qo'yish bo'yicha innovatsion loyiha ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyiha Markaziy Osiyodagi **birinchi uglerodli moliyalashtirish savdosi**, shuningdek, Jahon bankining global miqyosdagi **birinchi siyosat kreditlash dasturi** sifatida e'tirof etilmoqda. Loyiha O'zbekiston hukumatini uglerod bozori yo'lidagi dastlabki qadamlarni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash, davom etayotgan tarmoq va tarif islohotlari, shuningdek, Jahon banki guruhining energetika sohasini rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli ko'magi asosida **xalqaro uglerod savdolarini** boshqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Bunda, Jahon banki huzuridagi **“Uglerod aktivlari transformativ fondi” (Transformative Carbon Asset Facility – TCAF)** moliyaviy ko'magida O'zbekiston hukumatiga uglerod bozorida ishtirok etishda ko'maklashish (**Innovative Carbon Resource Application for Energy Transition – iCRAFT**) loyihasi doirasida 2024–2028-yillar davomida **46,2 mln AQSh dollari** miqdoridagi mablag'larni jalb qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.



Loyiha doirasida mamlakatda energiya resurslari sohasida tarif islohotlarini amalga oshirish natijasida qisqaradigan issiqxona gazlari emissiyasining savdosini yo'lga qo'yish 2 ta komponentdan iborat:

1-komponent:

Kamaytirilgan emissiyani sotib olish shartnomasi (*Emission Reduction Purchase Agreement – ERPA*) doirasida issiqxona gazlari emissiyasining **uglerod savdosi simulyatsiyasi** amalga oshiriladi. Bunda qisqartirilgan emissiya birliklari Jahon bankiga o'tkazilib, keyinchalik O'zbekistonga qaytariladi va **20 mln AQSh dollari miqdorida grant mablag'lari** ajratiladi.

2-komponent:

Yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi (*Mitigation Outcome Purchase Agreement – MOPA*) doirasida qisqartirilayotgan issiqxona gazlari emissiyasi bo'yicha xalqaro uglerod savdosi amalga oshiriladi. Bunda emissiya qisqartirish natijalari Jahon bankiga qaytarib berilmaydigan tarzda to'liq o'tkaziladi va **25 mln AQSh dollari miqdorida mablag'** ajratiladi.

5. O'zbekiston va Yaponiya hukumatlari o'rtasida iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga qaratilgan zamonaviy **“yashil” texnologiyalarni jalb qilishni ko'zda tutuvchi Joint Crediting Mechanism (JCM)** mexanizmini yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi. 2022-yil oktabr oyida ushbu yo'nalishda **Hamkorlik memorandumi** imzolandi.

Ma'lumot uchun: *Qo'shma kreditlash mexanizmi (JCM) — Yaponiyaning rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish loyihalarini 50 foizgacha moliyalashtirish orqali issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga qaratilgan hamkorlik mexanizmidir.*

2025-yil fevral oyida Qo'shma kreditlash mexanizmi (JCM) bo'yicha Qo'shma kengashning ilk rasmiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda JCM doirasida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha qoidalar va yo'riqnomalar tasdiqlandi.

6. Jahon banki va ETTB bilan birgalikda iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va “yashil” rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani (LTS) ishlab chiqish loyihasi yo'lga qo'yildi.

Ma'lumot uchun: Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim.

Strategiya doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod neytralligiga erishish uchun amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar va loyihalar, shuningdek, talab qilinadigan kapital qo'yilmalar hajmi ko'rsatilgan investitsiya rejasi tarmoqlar kesimida ishlab chiqiladi.

Hozirda mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan “O'zbekiston Respublikasini 2055-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish va uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilmoqda.

7. O'zbekiston Respublikasining “Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida”gi Qonuni ishlab chiqilib, 2025-yil 7-iyul kuni O'RQ-1073-son bilan tasdiqlandi.

Qonunda issiqxona gazlari emissiyasini hisobga olish, ularning davlat kadastrini hamda uglerod birliklari reyestrini yuritish, tarmoqlar kesimida issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash, shuningdek, issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish bo'yicha faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.



8. Germaniya hamkorlik tashkiloti bilan birgalikda “O'zbekistonda xususiy sektorga yordam va siyosat bo'yicha maslahatlar” loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha 2023–2028-yillarda amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, umumiy qiymati 12,0 mln yevroni tashkil etadi.

Loyiha doirasida quyidagi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- vazirlik va idoralarning 80 nafar xodimi, jumladan, 30 nafar xotin-qizning “yashil” sanoat siyosati sohasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali salohiyatini oshirish;
- hamkor vazirliklarga “yashil” sanoat siyosatini amalga oshirish uchun 4 ta strategik hujjatni ishlab chiqishda ko'maklashish;
- 25 ta kichik va o'rta korxonaga, shundan 3 tasi ayollar rahbarligidagi korxonalar, CO₂ emissiyasi intensivligini kamida 10 foizga kamaytirishda ko'maklashish.

9. “Yashil” iqtisodiyot onlayn platformasi (green.imv.uz) yaratildi. Mazkur platformada “yashil” iqtisodiyot, uning qonunchilik bazasi, amalga oshirilgan va kelgusida rejalashtirilayotgan faoliyat, ilg‘or xalqaro tajribalar hamda “yashil” o‘shishning boshqa jihatlariga oid ma’lumotlar jamlangan. Shuningdek, platforma “yashil” iqtisodiyot sohasidagi barcha asosiy instrumentlarni qamrab oladi.



10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2023-yilda *“Iqlim uchun harakat — Moliya vazirlari koalitsiyasi”ga* a’zo bo‘ldi. Koalitsiya o‘z faoliyatini **Xelsinki prinsiplari** asosida olib boradi.

Mazkur prinsiplar quyidagilardan iborat:



siyosat va amaliyotni Parij bitimi doirasida qabul qilingan majburiyatlarga muvofiqlashtirish;



iqlim o‘zgarishi sohasidagi tajriba va amaliy bilimlarni o‘zaro almashish;



samarali uglerod savdosini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish;



makroiqtisodiy siyosat, fiskal rejalashtirish, budjetlashtirish, davlat investitsiyalarini boshqarish va davlat xaridlari amaliyotida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni hisobga olish;




investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali iqlim masalalarini moliyalashtirish uchun xususiylar manbalarni safarbar qilish;



Parij bitimi bo‘yicha taqdim etiladigan **milliy miqyosda belgilangan hissalarini (NDC)** shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etish.

11 Jahon banki bilan birgalikda iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha **Milliy baholash (CCDR – Climate Change and Development Report)** loyihasi amalga oshirildi va uning hisoboti e'lon qilindi.



Iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini baholaydi



Barqaror va iqlimga mos o'sish yo'llarini aniqlaydi



Siyosat va investitsiya ustuvorliklarini belgilashga yordam beradi



Ushbu baholash iqtisodiyotga xalqaro miqyosdagi **arzon "yashil" moliyaviy mablag'larni** jalb qilishga ko'maklashadi.

12 Mamlakatda issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish va qisqartirilgan issiqxona gazlari emissiyasining xalqaro savdosini amalga oshirishni tartibga solish maqsadida:



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Xalqaro issiqxona gazi savdosi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"**gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining **2024-yil 7-martdagi 117-son qarori** bilan tasdiqlandi.

Mazkur Nizom:



✓ Xalqaro issiqxona gazlari savdosini tashkil etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

✓ Parij bitimining (Parij, 2015-yil 12-dekabr) 6-moddasiga muvofiq Barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini amalga oshirish bo'yicha milliy tartib tasdiqlanguncha qadar amal qiladi.

13. Vazirlik tomonidan barcha darajadagi issiqxona gazlari emissiyalarini qamrab oluvchi **"O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishida milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori** bilan tasdiqlandi.

Mazkur shaffoflik tizimi **milliy miqyosda belgilangan hissalarga (Nationally Determined Contributions — NDC)** erishish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning natijalarini baholash imkonini beradi. Shuningdek, u xalqaro miqyosdagi **"yashil"** moliyalashtirishni jalb etish, donorlar va boshqa investorlarning O'zbekistonga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, shaffoflik tizimi *xalqaro uglerod bozorlarida ishtirok etish, iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish hamda mazkur loyihalarga xalqaro investorlarni jalb etishning muhim omili* hisoblanadi.

14

O'zbekistonning Parij bitimi doirasida qabul qilgan majburiyatlariga asosan Milliy miqyosda belgilangan hissalar (Nationally Determined Contributions – NDC) ishlab chiqildi (NDC 1 va NDC 2) hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga taqdim etildi.

Mazkur hujjat emissiyalarni qisqartirish va iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashish bo'yicha mamlakatning iqlim sohasidagi harakatlar rejasini ifodalaydi. Parij bitimining barcha ishtirokchilaridan mazkur hujjatni ishlab chiqish va uni har besh yilda yangilab berish talab etiladi.



Shundan kelib chiqib, Ekologiya vazirligi bilan hamkorlikda 2025-yilda O'zbekistonning Milliy miqyosda belgilangan hissasi (Nationally Determined Contributions – NDC 3.0) ning navbatdagi yangi tahriri ishlab chiqildi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga taqdim etildi.



15

O'zbekiston Respublikasining Iqlim investitsiya jamg'armasining (Climate Investment Funds – CIF) Sanoatni dekarbonizatsiyalash dasturida ishtirok etishi bo'yicha ariza topshirildi va O'zbekiston Iqlim investitsiya jamg'armasi tomonidan eng yuqori natija ko'rsatgan 6 ta davlat qatoridan joy oldi.



Natijada 250 mln AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit jalb qilish imkoniyati yaratildi.



16

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-110) qabul qilindi.



Mazkur Farmondan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi issiqxona gazlari xatlovini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.



17

"O'zbekiston tomonidan Parij bitimini amalga oshirishga ko'maklashish va Parij bitimining 6-moddasiga muvofiq Koreya Respublikasi bilan birgalikdagi harakatlarni qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish uchun 2026–2030-yillarda KOICA tomonidan 8,5 mln AQSh dollari miqdoridagi grant mablag'larini moliyaviy ko'mak sifatida jalb qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.



18

"O'zbekiston Respublikasining dekarbonizatsiya strategiyasini ilgari surish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hamkorlik" loyihasi doirasida jalb qilingan 200 mln AQSh dollari miqdoridagi kredit mablag'lari hisobidan "Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi" (GEFF)ning III fazasi doirasida mahalliy banklar orqali tadbirkorlik subyektlariga "yashil" kreditlar ajratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki vakillari bilan loyiha doirasidagi kredit mablag'larini 300 mln AQSh dollarigacha oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.



GEFF
Green Economy
Financing Facility

19

"O'zbekiston Respublikasida "yashil" moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon loyihasi ishlab chiqilib, vazirlik va idoralar bilan kelishilmoqda.



Mazkur Farmon doirasida "yashil" moliyaviy resurslarni jalb qilish va oqilona safarbar etish, davlat, xalqaro va xususiy iqlim moliyasi oqimlarining muvofiqligini ta'minlash hamda loyihalar portfelini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" huzurida Milliy yashil iqtisodiyot jamg'armasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda.



MILLIY YASHIL
IQTISODIYOT
JAMG'ARMASI



20. Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan **“Eco Expo Central Asia 2025”** xalqaro ko‘rgazmasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan **“Yashil iqtisodiyot”** va **“Yashil moliya”** paviloni tashkil etildi.

Mazkur pavilyonda xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xususan, *Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati* vakillari, shuningdek, *Energiya samaradorligi milliy agentligi, Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi* hamda tijorat banklari (**SQB va Agrobank**) vakillarining ishtiroki ta’minlandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ko‘rgazmada ishtirok etgan vazirliklar orasida **eng yaxshi pavilonni** tashkil etgani uchun faxrli **1-o‘rinni** qo‘lga kiritdi.

21. 2024-yil 15-sentabrda Germaniya va O'zbekiston o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Germaniya Federativ Respublikasining Iqtisodiyot va iqlimni muhofaza qilish federal vazirligi o'rtasida **“Parij bitimining 6-moddasi doirasida hamkorlik to'g'risida”gi Anglashuv memorandumini** imzolandi.

Mazkur Memorandumning asosiy maqsadi **issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga moslashish salohiyatini mustahkamlash**, shu orqali kam uglerodli, iqlimga chidamli iqtisodiyot va “yashil” o'sishga o'tish yo'nalishlarida hamkorlikni teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlantirishdan iborat.

22. Iqtisodiyot va moliya vazirligining tashabbusi bilan iqlim o'zgarishi sohasida Koreya Respublikasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida tegishli Koreya vazirliklari bilan birgalikda bitim loyihasi ishlab chiqildi. Natijada, 2023-yil iyun oyida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Koreya Respublikasi Hukumati o'rtasida Iqlim o'zgarishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi Hadli bitim imzolandi.

Mazkur bitim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-oktabrdagi **“Xalqaro shartnomalarni tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-339-son qarori** bilan tasdiqlandi.

Bitim mamlakatlar o'rtasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, Koreyaning ilg'or va zamonaviy texnologiyalarini O'zbekistonda joriy etish orqali issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish va qisqartirilgan emissiyalar savdosini yo'lga qo'yish, shuningdek, iqlimga chidamli va kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish borasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.



23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19–20-may kunlari Vengriyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida, 2025-yil 20-may kuni **O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Vengriya Respublikasi Hukumati o'rtasida Parij bitimi doirasidagi hamkorlik to'g'risidagi Hadli bitim** imzolandi.